



## MUSTAQILLIKDAN SO'NG O'ZBEKISTONNING HINDISTON BILAN A'LOQALARI

**Toshquvvatov Norqobil**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10516205>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 06-January 2024 yil  
Ma'qullandi: 10- January 2024 yil  
Nashr qilindi: 16- January 2024 yil

### KEY WORDS

*Hamkorlik, rasmiy simpozium, geologiya, reyting, tibbiyot, diplomatiya, ayurveda ta'limoti, samet.*

### ABSTRACT

*Maqolada O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasidagi mustaqillik yillarida olib borilgan hamkorliklar haqida so'z boradi. Ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarning ilk namunalari va har bir soha bo'yicha alohida hamkorliklar yoritilgan. Tibbiyot sohasidagi o'zgarishlar va ularning islohotlari. Yurtimizda Hindiston elchixonalarining ochilishi va ularning faoliyatlari. "Hindiston-Markaziy Osiyo" birinchi sametidagi rejalar va ularning amalga oshirilishi. Hindiston va O'zbekistonning hamkorligidagi yo'nalishlarning rivojlanishi.*

Har bir mamlakat mustaqillikka erishgach boshqa mamlakatlar bilan ham iqtisodiy, ham madaniy a'loqalar o'rnatadi. Shu o'rinda mamlakatimizning Hindiston bilan a'loqalari anchagina keng. Bu aloqalar mustaqillikdan avval ham bo'lgan, uning tarixi bir-necha ming yillikdir. 1991-yilda mamlakatimiz mustaqilligini e'lon qilgach, Hindiston O'zbekistonning mustaqilligini tan olib, 1992-yil diplomatiya munosabatlari o'rnatdi va ikki mamlakat o'rtasida teng huquqli a'loqalar yo'lga qo'yildi. Mustaqillikdan to 2005-yilgacha ikki mamlakat o'rtasida 60 ga yaqin rasmiy hujjatlar imzolandi.

Ikki mamlakat olimlari ishtirokida ilmiy simpozium, seminar va anjumanlar o'tkazish odat tusiga kirgan. Davlatlar o'rtasida axborot texnologiyalari, kon sanoati, madaniyat, fan, texnika va ta'lim sohasida hamkorlik rivojlanmoqda. Mamlakatlar o'rtasida tarix, musiqa, adabiyot, arxeologiya, me'morlik, tibbiyot, biologiya, kosmik fazoni o'rganish, geologiya va boshqa ko'plab sohalarida hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Mustaqillikdan keyin ikki yurt o'rtasidagi madaniy aloqalarning ilk namunasi sifatida 1991-yil Hindistonda buyuk shoirimiz Alisher Navoiyning 550 yilligiga bag'ishlangan O'zbekiston madaniyati va san'ati kunlari o'tkazilgani, 1992-yil oktabrda esa mamlakatimiz mustaqilligining bir yilligiga bag'ishlab Dehli shahrida o'zbek madaniyati va san'ati festivali bo'lib o'tganini keltirish mumkin. Mamlakatlar o'rtasidagi ilmiy-madaniy hamkorlikning rivojlanishida 1994-yil Hindistonning O'zbekiston Respublikasidagi elchixonasi huzurida faoliyatini boshlagan Hindiston madaniy markazining hissasi kattadir. Hindiston jahonning eng ilg'or, tibbiyoti rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olgan. Shu sababli ham prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 27-yanvar kuni bo'lib o'tgan "Hindiston-Markaziy Osiyo" birinchi sametidagi nutqida Hindiston bilan ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida faol hamkorlik qilish orqali, bu mamlakatning ilg'or tajribasi, bilim va texnologiyalarini keng joriy qilish

asosida inson kapitalini rivojlantirishni eng birinchi strategik ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etgan<sup>1</sup>. Chindan ham Hindiston tibbiyoti dunyo reytingida yuqori o'rinlardan birini egallagan. Shu boisdan bu yerda tibbiyot turizmi jadal rivojlanmoqda. Yuqori texnologik operatsiyalar, sohaga innovatsion texnologiyalarni jalb qilish yo'nalishlarida hind mutaxassislaridan o'rganadigan jihatlarimiz juda ham ko'pdir. Shundan kelib chiqqan holda, keying yillarda hindistonlik hamkorlar bilan birgalikda mamlakatimizda qator istiqbolli loyihalar amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatimizda bu davlatning yirik va nufuzli klinikalari bilan birgalikda 10 dan ziyod tibbiyot muassasalari faoliyati yo'lga qo'yilgan. 2022-yilda Dehli va Haydarobod shaharlarida Toshkent tibbiyot akademiyasining vakolatxonalari ochildi. Har yili 200 dan ortiq mutaxassislarimiz Hindistonning yetakchi klinikalarida malaka oshirib ham qaytayotgani ham ijobiy natijadir. O'z navbatida, sog'liqni saqlash sohasida Hindiston bilan hamkorlikni yanada chuqurlashtirish maqsadida virusolog vrachlar tayyorlash dasturini boshlash ayurveda ta'limotlari va yoga amaliyoti hamda Ibn Sino risolalari asosida zamonaviy sog'liqni saqlash yutuqlarini to'ldirib turadigan an'anaviy tibbiyot usullarini joriy qilish borasida o'zaro kelishuvlar amalga oshirilgan.

O'zbekiston Tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Kamilov Hindiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri Subramanyam Jayshankarga diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 30 yilligi (1992-yil 18-mart) munosabati bilan tabrik yo'lladi: "Birgina o'tgan yilning o'zida O'zbekiston va Hindiston tashqi ishlar vazirliklari rahbarlari ham ikki tomonlama, ham xalqaro forum va tadbirlar doirasida 6 marotaba uchrashuv o'tkazildi. Bu esa ikki tomonning strategik sheriklikni yanada mustahkamlash, hamkorlik ko'lamini tobora kengaytirish borasida intilishlarining yaqqol ifodasidir"<sup>2</sup>. Davlatimiz rahbarining 2020-yilda Hindistonda "O'zbekiston madaniyati yili"ni hamda O'zbekistonda "Hindiston madaniyati yili"ni o'tkazish, shu yilda yurtimizda O'zbekiston - Hindiston Yoshlar festivalini tashkil qilish taklifini ilgari surganligi hamda buning muvaffaqiyatli amalga oshirilganligi mamlakatlar o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamladi. Umuman olganda, ikki mamlakat rahbarlarining shaxsiy sa'y-harakatlari tufayli, O'zbekiston-Hindiston munosabatlarida yaqinlashish tomoniga, shuningdek, iqtisodiyotda bir-birlarini to'ldirish va o'zaro bog'langanligini ta'minlash tomoniga sifat jihatdan siljish bo'lmoqda. O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi bunday sheriklikning rivojlanib borishi Afg'onistonni mintaqaviy o'zaro bog'liqlik tizimiga integratsiya qilib, Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasida uzoq muddatli hamkorlikning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, har bir mamlakat fuqorolari uchun zarur bo'lgan aloqalarni yo'lga qo'yishi kerak. Oxirgi 10 yil ichida chetga borib davolanishdan ko'ra ko'proq o'zimizda shu imkoniyatlarni yaratishga kata e'tibor berilmoqda. Nafaqat Hindiston, balki boshqa davlatlar bilan ham sog'liqni saqlash tizimida ko'plab hamkorliklar olib borilmoqda. Talabalarni chetda bilimini oshirishga imkoniyatlar va sharoitlar yaratilmoqda. Yurtimizda amalga oshirilayotgan ko'pgina islohatlarning va boshqa davlatlar bilan aloqalarining rivojlanib borishi yosh avlod uchun chinakam poydevor vazifasini o'taydi. Chunki har qanday rivojlanmoqchi avlodlariga chinakam qo'rg'on vazifasini o'tovchi yurt qoldirmoqchi bo'lsa avvalo rivojlangan davlatlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yishi kerak.

<sup>1</sup> "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi"

<sup>2</sup> <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-hindiston-hamkorligiga-30-yil-to'ldi>

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Sh.Mirziyoyev."Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari"2022.
- 2."Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallagan Taraqqiyot strategiyasi"
- 3.O'zbekiston tashqi ishlar vaziri veb sayti.
4. Start.uz sayti
- 5.<https://senat.uz> sayti
- 6.<https://strategy.uz> sayti
- 7 Marajabov, BNMOG (2022). MARKAZIY OSIYO XALQLARINING HOJ ZIYORATI TARIXIGA NAZAR. Sharq uyg'onishi: innovatsion, ta'lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar , 2 (5-2), 862-868.
- 8 Mamarajabov, B. N. M. O. G. (2023). O 'ZBEKISTONDAGI ARABLARGA OID TARIXIY VA ETNOGRAFIK MA'LUMOTLAR TAHLILI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(3), 691-697.

